

## **INGLIZ TILIDA SO‘Z YASALISHINING BUHGALTERIYA HISOBI VA AUDIT TERMINLARI MATERIALI ASOSIDA TAHLILI**

**Azimova Dildora Maxmudjonovna,**

**NamMTI, PhD talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi buxgalteriya hisobi va audit terminlarining so‘z yasalishining buxgalteriya terminlari materiali asosida tahlili, eng avvalo, affiktsatsiya usullari yordamida so‘z yasalish jarayoniga e‘tiborni qaratish va terminlar haqidagi ta‘limot, shuningdek, o‘rganilayotgan so‘zlarni o‘zgarishi va leksikografik tadqiqi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Terminologik birikmalar, prefiks, suffikslar, so‘zlar.

## **АНАЛИЗ АНГЛИЙСКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ НА МАТЕРИАЛЕ ТЕРМИН УЧЕТА И АУДИТА**

**Азимова Дилдора Махмуджоновна,**

**НамИТИ, аспирант**

**Аннотация:** В данной статье проводится анализ словообразования терминов бухгалтерского учета и аудита в английском и узбекском языках на материале терминов бухгалтерского учета, прежде всего, уделяя особое внимание процессу словообразования с использованием способов аффиксации и учению о терминах, как а также упоминается изменение изучаемых слов и лексикографические исследования.

**Ключевые слова:** Терминологические соединения, приставки, суффиксы, слова.

**Abstract:** This article analyzes the word formation of accounting and auditing terms in English and Uzbek languages on the basis of accounting terms, first of all, paying special attention to the process of word formation using affixation methods and the doctrine of terms, as well as mentioning the change in the words being studied and lexicographical research.

**Key words:** Terminological compounds, prefixes, suffixes, words.

Ingliz tilida so‘z yasalishining buxgalteriya terminlari materiali asosida tahlili, eng avvalo, affiktsatsiya usullari yordamida so‘z yasalish jarayoniga

e'tiborni qaratish imkonini beradi. Affiksial morfemalar o'zakka nisbatan joylashish nuqtai nazaridan uch turga bo'linadi: prefiksial, postfiksial va infiksial morfemalardir. So'zning o'zi bilan tanish bo'lgan professional tarjimonlar ulardan yasalgan so'zlarni tushunib, lug'at yordamisiz ham tarjima ekvivalenti (muqobili)ni topa oladi, zero lug'atga barcha zarur tushunchalarni kiritishning imkoni mavjud emas.

Ingliz tilida suffikslar yordamida so'z yasash usuli bilan, ya'ni asosga suffiks – o'zakdan keyin keladigan morfemani qo'shish bilan yasalgan ko'plab terminlar mavjud. So'zning leksik-grammatik komponentiga ta'sir etuvchi prefikslar yordamida so'z yasashdan farqli o'laroq, suffikslar yordamida so'z yasash, odatda, boshqa so'z turkumi yoki so'zlarning boshqa sinfiga mansub so'zlarni yaratish imkonini beradi.

Prefiksial morfemalar o'zakning oldida joylashib, quyidagi sug'urtaga oid terminlar yasaladi: -de – deferred; deflation; default; -un – unsecured loan; undisclosed assignment; – in, -il – income bond, income bracket, income option, income tax, insolvency; incremental cost, inactive account, incentive bonus, inconvertible, incorporation, incremental cost, intestacy, intrinsic value Infiksial morfemalar o'zakning ichiga joylashib yasaladi va g'aznachilik sohasida yasaladigan terminlarda deyarli kuzatilmaydi.

Suffikslar yordamida terminlar yasash usuli sifatida buhgalteriya sohasiga oid yangi sifatlarni hosil qilishda ham faol qo'llanadi. Ular asosan boshqa soha terminologik birliklari hisoblanib, so'zga -ed, -able, -ible, -ary, -ing suffikslari qo'shib, fe'l va ot turkumiga mansub so'zlardan yangi sifatlarni (o'zbek tiliga sifatoshlar bilan tarjima qilinadi) yasaydi: – to sale (sotmoq) + able = salable (sotilayotgan); to bank (bankka pul qo'yimoq) + able = bankable ( bank uchun maqbul bo'lgan); to cash (naqd pul olmoq) cash+able = cashable (inkassatsiya qilinishi lozim bo'lgan); to charge + ( narx belgilamoq) + able = chargeable ( hisob raqamga kiritiladigan); – to encash (naqdlamoq) + able = encashable (naqdashtirilayotgan); to calculate + ed =

calculated income (hisoblab chiqilgan daromad); to fine (jarima solmoq) + ed = fined (jarima solingan); to encash (inkassatsiyalamoq)+ed = encashed (inkassatsiyalangan); to devalue (devalʼvatsiya qilmoq valyutani) + ed = devaluated (devalʼvatsiya qilingan); donate + ed = donated (surplus) xadya qilmoq (sarmoya)budget (byudjet) + ary = budgetary (byudjetga oid); function (funktsiya) + ary = functionary (funktsiyaviy); to deposit (omonat kassasiga qoʻymoq) + ary = depositary (saqlovchi, ishonch bildirilgan shaxs) – to account (hisoblamoq) + ing = accounting (buxgalterlik ishi).

Soʻz qanday usullardan foydalanib yasashidan qatʼiy nazar, yangi soʻz hosil boʻladi. Tilshunoslikda soʻz yasashining asosan: semantik usul; sintaktik-leksik usul; affiksatsiya usuli; kompozitsiya usuli; abbreviatsiya usullari mavjud. Biz tadqiq qilgan ingliz tili terminlarini buxgalteriya hisobi va audit sohasida qoʻllanadigan terminlarni yasashda affiksatsiya va abbreviatsiya usuli faol ishtirok etadi.

Terminologik birikmalar – koʻp komponentli, alohida rasmiylashtirilgan, semantik jihatdan yaxlit, ikki, uch yoki undan ortiq terminologik komponentni qoʻshish yoʻli bilan yasalgan birikma: – tender offer (tender taklifi); stock trust certificate (ishonch asosidagi aksiyadorlik guvohnomasi) treasury certificate (xazina guvohnomasi); – asset management (aktivlarni boshqarish).

Yuqorida bayon qilinganlar asosida xulosa qilish mumkinki, ingliz tilida prefikslar yordamida soʻz yasash (derivatsiya) jarayonlari, buxgalteriya sohasida qoʻllanadigan yangi terminologik birliklarni hosil qilishning yetakchi usullaridir. Shunday qilib, ingliz tili buxgalteriya hisobi va audit terminlarining hosil boʻlishi va faoliyati, bir tomondan, yangi tushunchalar, maʼnolar, mazmunlar yuzaga kelishi munosabati bilan yangi terminlarga boʻlgan ehtiyoj, ikkinchi tomondan, ularning jamiyat, davlat, davlatlararo munosabatlarda qoʻllanish sohalarining kengayishi, uchinchi tomondan esa, soʻz yasash usullari, demakki, termin hosil qilish usullari bilan, yaʼni derivatologiya, leksika va semantika bilan bevosita bogʻliq. Bularning barchasi terminlarni, jumladan, buxgalteriya

hisobi va audit sohasiga oid terminlarni urganish, shakllantirish va tilda rivojlantirishning lingvistik asosi sanaladi.

#### FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shvetsova S.V. Lingvisticheskiy analiz sposobov terminoobrazovaniya v sovremennoy oftalmologicheskoy terminosisteme. Avtoref. diss... kand. fil. nauk. – Irkutsk, 2005. – S. 14.
2. Bulgakova I.Yu. Formirovanie terminologii angliyskogo dokumentovedeniya v donauchnuyu epoxu // Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo lingvisticheskogo universiteta Vipusk №1 (9), 2010. – S. 21–24.
3. Brunner K. Istoriya angliyskogo yazika. – M.: Yeditorial URSS, 2003. – C. 115
4. Azimova, D. M., va Laptev, I. A. (2017). SEMANTICHESKOE SOOTNOSHENIE SUSHESTVITELNOGO I PRILAGATELNOGO. Teoriya i practika sovremennoy nauki, (5), 1140-1141.
5. Khoshimova, D. M., & Inomiddinova, D. I. (2015). COMPARATIVE STUDYING THE WORLD OF ANIMALS IN" BABURNAME" BY ZM BABUR. Vestnik sovremennoy nauki, (9- 1), 97-99.
6. Khoshimova, D. (2022). THE TRANSLATION PROBLEMS OF LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF "BABURNAME". Gospodarka i Innowacje., 24, 1067-1069.
7. Khoshimova, D. (2020). GENERAL AND CONDITIONAL PECULIARITIES OF DESCRIPTIVE MEANS IN" BABURNAME". The Scientific Heritage, (49-3), 50-51.
8. Khoshimova, D. (2019). The place of author's personal and interpersonal comparison means in translation of «Baburname». Sciences of Europe, (45-5 (45)), 46-48.
9. Azimova, D. M. (2017). Modelli sootnositelnyh ryadov leksemoy prilagatel'nogo v kachestve postoyannogo chlena. Aktualnye nauchnye issledovaniya v sovremennom mire, (4-2), 38-40.

10. Azimova, D. (2017). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Teoriya i amaliyot sovremennoy nauki, (4), 3-5.
- Azimova, D. M., & Mamadalieva, N. A. (2017). Dvoystvennaya priroda angliyskogo glagola. Teoriya i amaliyot sovremennoy nauki, (5), 1142-1145.
- Akhmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) German language teacher of Fergana State University. Ergasheva Nozimakhon Bahodirjon kizi. Student of Fergana State University. USE OF PRECEDENT NAMES IN ARTISTIC WORKS.FOR PARTICIPATIONIN THE SCIENTIFIC CONFERENCE INNOVATIVE RESEARCHIN MODERN EDUCATION WITH AN ARTICLE ENTITLED. Hosted from Toronto, Canada, Page. 53-56
- Akhmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) German language teacher of Fergana State University. THE PRECEDENT IS ABOUT THE NAME AND ITS MEANING. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH Hosted from Singapore. Page.108-111
- Axmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) Badiiy matnda ba'zi onomastik birliklarning pretsedent nomlar sifatida qo'llanishi. Давлат тили тараққиёти: муоммо ва ечимлар. илмий-амалий анжумани материаллари. Тошкент, 27.10.2023.481-486 бетлар